

[Organizing vehicle transportation and traffic safety] week16 - Basic elements of passenger transportation. Forms of ownership of a passenger car dealership.

MAVZU-16: Yo`lovchilarni tashishni tashkil etish elementlari. Yengil avtosalonning mulkchilik shakllari.

Reja:

- 16.1. Passajirlarni tashish avtomobil transporti.
- 16.2. Marshrutlar tizimi va haydovchilar mehnatini tashkil etish.
- 16.3. Shaharlardagi avtobus ishlarining asosiy elementlari. Shahar atrofi Shaharlararo, davlatlararo yo`lovchlar tashish.
- 16.4 Yengil taksida tashishni tashkil qilish jarayoni.
- 16.5 Yengil taksi haydovchilarini ish jarayonida himoyalashni tashkil qilish.
- 16.6 Korxonalar, tashkilot va idoralarga yengil avtomobil bilan xizmat etishni tashkil etish.

Tayanch soʻz va iboralar: *passajirlarni tashish, marshrutlar tizimi va haydovchilar mehnatini tashkil etish, shaharlardagi avtobus ishlarining asosiy elementlari, yengil taksi haydovchilarini ish jarayoni.*

16.1. Passajirlarni tashish avtomobil transporti.

Passajirlar avtobus, yo`nalishdagi taksi, yengil taqsilar bilan tashiladi. Avtobuslar shaxarda: terma, tezyurar. Shaxaroldida: avtobuslar ikki turda qattik va yumshoq o`rindikli turlarda tashiladi.

Shaxarlararo yo`nalishlarda xam qattik va yumshoq o`rindikli avtobuslarda tashiladi. Avtobus yunalishlari uch turdan iborat:


- Viloyatlarni bir- biri bilan bog`lovchi yunalish;
- Viloyat ichidagi 50 km dan uzun bo`lgan yunalishlar;
- Davlatlarni bir-biri bilan bog`lovchi avtobus yo`nalishlariga bo`linadi.

Yo`nalishdagi taksilar passajirlar talabiga binoan xarakat xafsizligi talabiga javob bergan barcha joylarda to`xtaydi. Ta'rif bir passajirni bir marta yurishish uchun belgilanadi.

Yengil taksilar bilan passajirlarni talabiga binoan xarakat xafsizligi talabiga javob beradigan yo`llarda yuradi. Ta'rif bir marta o`tirish, bir to`lovchi, mijozda bir soat bekor turish uchun belgilanadi.

Shaxar, shaxaroldi avtobus yo`nalishlarida, Vazirlar maxkamasini qarori bilan imtiyozli va bepul yuruvchilar shaxarda yagona nusxadagi kartochkalar bilan, shaxaroldida xarbiy kishilar o`zlarini guvoxnomasi bilan bepul yuradilar.

Shaxardagi avtobus va yunalishdagi taqsilari xizmati Vazirlar maxkamasini qaroriga binoan tendir tanlovi o`tkazilib g`oliblarga yo`nalishni 6-12 oyga beriladi. Xamda goliblar bilan shartnoma tuziladi. Tendir g`olibi yo`nalishida boshqa avtotashuvchilar faoliyat ko`rsatishi mumkin emas. Tendir qatnashish uchun avtotashuvchi uyushmalar litsenziya olgan bo`lishlari, patent to`lovi to`lagan bo`lishi kerak.



Henderson K José Martín Ramírez Carrasco. (Published on July 17, 2020). person holding white printer paper. Free to use under the Unsplash License <https://unsplash.com/photos/person-holding-white-printer-paper-yhNVwsKTSaI>

1-rasm. GPS navigatsiya sistemasi

16.2. Marshrutlar tizimi va haydovchilar mehnatini tashkil etish.

Yo`nalishlarda avtobus qatnovchilari axoli talabi, avtokorxonada ishlatish bo`lim xodimlari tomonidan imkoniyatlar o`rganilib chikkandan so`ng, ishchi gurux tuziladi. Ishchi gurux tarkibiga birlashma passajirlar tashish bo`limidan mutaxassis, avtokorxonada ishlatish bo`lim boshlig`i, DAN xodimi, xududiy yo`l ta'mirlash tashkiloti mutaxassisi, avtokorxonada xarakat xavfsizligi muxandislaridan tashkil qilinadi.

Ishchi gurux yo`nalish ochiladigan yo`llarni xolatini, taxminiy passajir oqimini, yo`nalishga quyiladigan xarakat vositasi kabi xolatlarni o`rganib chikib, kamchiliklar bo`yicha, dalolatnoma tuzib, xokimiyatga topshiriladi. Yo`l xolati tuzatilib, so`ng ishchi gurux aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilinganlik to`g`risida ko`rib chikib, yo`nalishga xujjat qilish uchun rozilik beradi. Avtokorxonada avtobus yo`nalishi xujjatini tayyorlaydi. Xujjat tarkibiga pasport, yo`nalish sxemasi, yo`nalish xolati bayonnomasi, qatnov jadvali, korxonadan iborat bo`ladi.

Avtobus qatnovi joriy etilish uchun quyidagi xolatlar talabga javob berishi kerak: ikkita transport vositasi bir birini bemalol qo`yib yuborishi kerak; piyodalar uchun yo`lchetida eng kamida 1-2 m gacha joy bo`lishi kerak.

Zakan-zavur kirg`oklari beton tuskichlar bilan tusilgan bo`lishi kerak.

Yo`nalishga xizmat ko`rsatuvchi ATK barcha xujjatlarni tayyorlab, DAN, birlashma YTB, poritetdagi ATKlar tomonidan tasdiqdan o`tkazilib shaxarda uch nusxada, shaxaroldida 4-6 nusxada, shaxarlararo yo`nalishlarda 8 nusxada tayyorlanadi. Tasdiqdan o`tkan xujjatlarni bir nusxali, shaxaroldi yo`nalishlar uchun qatnov jadvali nozimxonaga berilib, nozimxonada nazorat qiladi. Shaxaroldi yo`nalishlari xo`jjatlari; narxnomasi, qatnov sxemasi jadvali AShK, ABB larga beriladi.

Xaydovchilar kuniga 10 soatdan yuqori ishlasa kelguvchi kuni dam oladi. Xar 3-4 soatda 40-50 minut tanaffus qiladi. Xaftasiga 41 soat, oyda 169,2 soat ishlash mumkin.

16.3. Shaharlardagi avtobus ishlarining asosiy elementlari. Shahar atrofi Shaharlararo, davlatlararo yo'lovchlar tashish.

Qatnov doimiyligi deb, jadvalga rioya qilib amalda bajarilgan qatnovlar sonini reja bo'yicha bajarish kerak bo'lgan qatnovlar soniga nisbatini yuzga o'paytirilganigateng o'lchov birligi % xisobida. Passajirlar oqimi, yo`nalishdagi avtobuslarni xar bir eshigiga odam quyiladi. Avtobus jadval bo'yicha xar bir bekatda tuxtab avtobusga chikkan va tushgan passajirlar sonini belgilab boradi. So`ng passajirni yurgan masofasiga ko`paytirib yo'lovchi km topiladi.

Jami kun bo'yicha yurgan passajirlar soni, passajir km yig`indisi topiladi. So`ng passajirlarni o`rtaga "Lur" yurish masofasini topamiz.

Jadval bo'yicha yurgan avtobuslar xatoligi (10 % ga ruxsat beriladi. Muzlama vaqtlarda barcha kilingan katnovlar jadval bo'yicha yurilgan xisoblanadi. Yonilgi yukligi sababli bajarilmay qolgan qatnovlar, qatnov rejasidan kamaytirib xisoblanishiga ruxsat etilgan. Xar bir qatnovga ketishdan oldin avtobus xaydovchisini 4xV siga chipta nomeri junayotgan vaqt belgilanib so`ng xarakat boshlaydi. Passajirlar avtobusni orqa eshigidan chikib joylashishlari, tushishda oldingi eshikdan tushishlari kerak, xaydovchi xar bekatni el'on qilib borishi, chiptani esa salonda yurib sotishi kerak, qatnov oxirida navbatchi nozim Chptasiga belgi qo`yib chiptani oxirgi rakamini ezib berishi kerak.

bilan zudlik bilan bog'lanib, yuzaga kelgan vaziyatlarni tezkorlik bilan hal qilish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur.

Taksi avtomobillarining to'xtab turish joylari tungi soatlarda yoritilgan bo'lishi zarur.

Har bir to'xtab turish joyining pasporti bo'ladi, unda engil taksi avtomobillarining to'xtab turishga taluqli barcha asosiy ma'lum


16.4 Yengil taksida tashishni tashkil qilish jarayoni.

Engil avtomobillarda passajirlarni tashish asosan quydagi xillarga bo'linadi: maxsus taksi avtomobillarda passajirlarni tashish; xizmat yuzasidan passajirlarni engil avtomobillarda tashish (bunga aholi buyritmasiga binoan marosimlarga xizmat etuvchi engil avtomobillar bilan xizmat ko'rsatish). Statistik ma'lumotlarga ko'ra engil avtomobillarda passajirlarni tashish jami yo'lochi hajmidan 9-6 foizni tashkil etgan. Barcha engil taksi avtomobillari da kira haqini o'lchab boruvchi asbob – taksometr hamda chiroqli signal tuzilmalari bo'lishi lozim. Bunda ko'k chiroq engil taksini bo'shligini, qizil chiroqli signal bandligini ko'rsatadi. Tasometr asbobi Davlat standarti talabiga binoan plombalanishi shart. Engil taksida asosiy ko'rsatkichlar : pasadka, to'lovli yol, engil taksini 1 soat bekor turganiga to'lovlarda tashkil topgan daromad, yoldan foydalanish koeffitsienti, umumiy yurilgan yollar kiradi.

“Tashish cho'qqisi”dagi har bir soatda 40 dan ortiq yengil taksi avtomobillari jo'natiluvchi joylarda maxsus dispecherlik punkiti tashkil etish lozim. Bunday dispecherlik punkitlarida zamonaviy a'loqa jihozlari bo'lishi lozim. Bunday a'loqalar shaharning dispecherlik punkitlari hamda avtotrasport uyushmalari bilan zudlik bilan bog'lanib, yuzaga kelgan vaziyatlarni tezkorlik bilan hal qilish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur.

Taksi avtomobillarining to'xtab turish joylari tungi soatlarda yoritilgan bo'lishi zarur.

Har bir to'xtab turish joyining pasporti bo'ladi, unda engil taksi avtomobillarining to'xtab turishga taluqli barcha asosiy ma'lum



2-rasm. Aholidan taksimotorlaga buyritma olishda dispetcherlik boshqaruvini texnologik jarayoni tuzilish sxemasi.

(1,2,3,..n-axolidan buyritma oladigan dispetcherlar puliti;A,B,V,G radio aloqa orqali buyritmani bajarish;uchburchak radioaloqa; ingichka chiziq axborat oqimi;ikki chiziq –taksi avtomobillar xarakati

16.5 Yengil taksi haydovchilarini ish jarayonida himoyalashni tashkil qilish.

Yengil taksida haydovchilarga ikki xolatda himoyalashni tashkil qilish zarur bo`ladi. Birinchisi haydovchiga yo`lovchi sifatidagi tajavuskorlar tomonidan uyishgan qasdan qilinadigan jinoytchiliklarni oldini olish;

Ikkinchisi avtmobildagi boshqarishdagi xarakat xavfsizligiga rahna soluvchi elementlarini boshqaruvchanligini yaxshilashlar kiradi.

Yengil taksi avtomobillariga bo`lgan extiyojni aniqlash

Aholining passajirlar tashish transport vositalariga bo`lgan extiyojini faqatgina marshrutda ishlovchi transportlar bilan qondirish mumkin emas. Barcha shaharlarda ko`plab passajirlar tashuvchi transport turlari: avtobus va metro bilan birga Yengil taksi avtomobillari ham bo`lishi zarur. Yengil taksi avtomobillarida passajirlar tashish hajmi aholi soni, shaharning ahamiyati, iqlimi va boshqa sharoitlarga bog`liq. Passajirlar tashish hajmini aniqlash uchun talablarni tizimli ravishda o`rganish kerak. Yengil taksi avtomobillariga bo`lgan talab, marshrutlarda ishlovchi transport turlaridagi kabi sutka soatlari, xafta kunlari, yilning oylari ichida o`zgaruvchan bo`ladi. Yengil taksi avtomobillariga bo`lgan axoli talabini o`rganishning bir necha usuli bor. Yo`lovchi aylanishi hisobi bo`yicha liniyada kerakli sondagi avtomobil-taksi A quydagi formula bo`yicha topiladi:

$$A = \frac{Qn * l_0 * \eta_n}{T_n * V_t * \delta * \beta * n_c * \gamma_d}$$

Bunda Qn – sutkada taksi bilan tashiladigan yo`lovchilar soni;

η_n -yo`lovchi oqimining noteks kelishini hisobga oluvchi koeffitsient;

l_0 - taksini kunlik o`rtacha probeg;

T_n - Ishdagi vaqt;

δ - vaqtdan foydalanish koeffitsient;

β - to`lovli kmdan foydalanish koeffitsienti;

n_c -sutkadagi qatnovlar soni

Taksimotorlarda bosh ko`rsatkich bo`lib to`lovli km va undan foydalanish koeffitsienti hisoblanadi. Odatda yo`lovchi oqimiga qarab to`lovli km va undan foydalanish koeffitsienti 0,70-0,85 belgilanadi. Yo`lovchilarni o`rtacha yurish masofasi shaharni joylashishga bog`liq bo`ladi. Bir vaqtni o`zida tashilayotgan yo`lovchilar:

-bir yo`lovchi bilan 40-45 foiz;

-ikki yo`lovchi bilan 30-35 foiz;

-uch yo`lovchi bilan 15-20 foiz;

-to`rt yo`lovchi bilan 5-10 foiz;

Yuki bilan yo`lovchilar 15-20 foiz. Texnik tezlik 25-30 km/soat, ishlatish tezligi

18 km/soat. Yengil taksi avtomobillarining to`xtab turish tarmog`i. Yengil taksi avtomobillarining to`xtab turish joylari soni shaharlarda taxminan har ikki kvadrat kilometr xududga kamida bitta qabul etiladi. Bunday to`xtab turish joylarini shahar xududlarida joylashtirishda shaharning geografik o`rni, shahar marshrut transporti tarmog`i, passajirlar ko`plab yg`iladigan joylar (aeroport, temir yo`l vokzal i, yirik ma'muriy markazlar, tomosha joylari va shu kabilar) hisobga olinishi lozim. To`xtab turish joylari orasidagi masofalar shahar markaziy xududlarida 0,5—1,1 km atrofida qolgan xududlarda 0,8—1,5 km atrofida qabul etiladi. Taksi avtomobillari to`xtab turish joylari yil davomida uzluksiz ishlaydigan yoki mavsumiy, sutka davomida uzluksiz ishlaydigan yoki sutka soatlarining ma'lum chegarasida ishlaydigan xillarga bo`linadi. Taksilarning to`xtab turish joylarining yo`l qoplamasi oq bo`yoq bilan belgilab qo`yiladi. Har bir to`xtab turish joyi belgilangan namunadagi ko`rsatkichlar bilan jihozlanishi zarur.

“Tashish cho`qqisi”dagi xar bir soatda kamida 20 ta taksi avtomobili jo`natiladigan punktlarda dispetcherlar bilan ulanuvchi telefon aloqasi bo`lishi lozim. Bunda zaruratga qarab yaqin atrofdagi to`xtab turish joylaridan bo`sh taksilarni chaqirish imkoni bo`ladi. “Tashish cho`qqisi”dagi xar bir soatda 40 dan ortiq yengil taksi avtomobillari jo`natiluvchi joylarda maxsus dispetcherlik punkti tashkil etish lozim. Bunday dispetcherlik punktlarida zamonaviy aloqa jixozlari bo`lishi lozim. Bunday aloqalar shaharning dispetcherlik punktlari hamda avtotransport uyushmalari bilan zudlik bilan bog`lanib, yuzaga kelgan vaziyatlarni tezkorlik bilan xal qilish imkoniyatiga ega bo`lishi zarur. Taksi avtomobillarining to`xtab turish joylari tungi soatlarda yoritilgan bo`lishi zarur. Xar bir to`xtab turish joyining pasporti bo`ladi, unda yengil taksi avtomobillarining to`xtab turishiga taalluqli barcha asosiy ma'lumotlar ko`rsatiladi. Bunday pasportlar DAN bilan kelishilgan xolda tegishli xokimliklar tomonidan tasdiqlanadi. Shahar atrofi va shaharlararo qatnov marshrutlariga xarakat jadvallari osilishi, ish boshlanishi va xarakatni tamomlash vaqtlari ko`rsatilgan bo`lishligi lozim. Haydovchilar mehnatini tashkil etish va ularning ish grafigi, haydovchilar mehnatini tashkil etishga qo`yiladigan talablar amalda avtobus haydovchilariga qo`yiladigan talablar bilan bir

xildir. Aksariyat xollarda taksi avtomobillari haydovchilarining mehnatini tashkil etishda, ularning ish rejimi bir va bir yarim smenali bo`lib, dam olish kuni mehnat qonunchiligi talabini saqlagan holda xafta kunlari ichida siljuvchi qilib beriladi. Transport vositalarining samaradorligini oshirish, passajirlarning tashishga bo`lgan talablarini maksimal darajada qondirish, haydovchilarning ish unumini oshirish va belgilangan shartlarni bajarish maqsadida yil davomidagi dam olish va mehnat ta'tillari kunlarida almashtiruvchi haydovchilar mehnatidan foydalanish zarur. Taksi avtomobillari haydovchilari mehnatining unumliroq bo`lishi va toliqmasdan ishlashining eng oqilona ish rejimi bir smenali ish rejimidir. Ammo ishni bir smenali rejimda tashkil etishda avtomobilni ikkinchi haydovchiga topshirish uchun avtosaroyga qaytishdagi unumsiz (passajirsiz) qatnovlar ma'lum darajada oshib ketadi. Haydovchilarning ishda bo`lish vaqitlarini belgilashda aholining taksi avtomobillarga bo`lgan talabi eng ko`p miqdorda qondirilishini, avtomobillarning saroydan ishga chiqishi va saroyga qaytib kelishi va sutka davomidagi soatlarda zarur bo`lgan avtomobillar sonini hisobga olish zarur. Bunda xar bir haydovchining oylik ish vaqti balansidan to`laro? foydalanishni, ularning navbatma-navbat birinchi va ikkinchi ish smenasida bo`lishini, to`liq ish kuni davomida avtomobillarning texnik xolati buzilib qolishining oldini olishga qaratilgan sozlash-ta'mir lash ishlarini ham nazarda tutish zarur. Binobarin, taksomotorlarda passajirlarni tashish ishlarini tashkil etish dagi eng murakkab vazifalardan biri avtomobillarni ishga chiqarish grafiklarini tuzishdan iboratdir. Bunda passajirlarning tashishga bo`lgan talabining oshib borishini hisobga olib, taksi avtomobillarni ishga chiqarish ularning oylik ish grafiklari asosida tashkil etilishi lozim. Bunday talabni amalga oshirishda kun soatlari, xafta kunlari va oy davomida tashish hajmlarining o`zgarishi, ish kunlari, shanba va yakshanba kunlari, bayram oldi va bayram kunlarida taksi avtomobillariga bo`lgan talabning o`zgarishi hisobga olinishi lozim. Bayram oldi va bayram kunlari, amalda taksi avtomobillariga bo`lgan talab va passajirlarning o`rtacha qatnov masofalari 25-30 foiz oshi shini nazarda tutish lozim. Yengil taksi-avtomobillar xizmatiga aholidan buyurtma olishni tashkil etish Aholining Yengil taksi avtomobillariga bergan buyurtmasi oldindan beriluvchi va tezkor bo`lishi

mumkin. Aholining oldindan beriluvchi buyurtmalari joylardagi taksi avtomobillarining dispetcherlik punktlarida, telefon aloqasi orqali markaziy dispetcherlik bekatida, temir yoʻl poezdi vagonlarida, samolyotlarda va turli transport-ekspedi tsiya agentliklarida qabul qilinishi mumkin; tezkor buyurtmalar esa telefon aloqasi bilan markaziy dispetcherlik bekati orqali qabul qilinib, 1 soat ichida amalga oshiriladi. Kichik va oʻrta shaharlarda yengil taksi avtomobillari saroyining dispetcherlik xizmati buyurtma qabul qilish va uni amalga oshirish bilan bevosita shugʻullanadi. Yengil taksi avtomobillariga oldindan buyurtma qabul etishda maxsus varaqa toʻldiriladi va boʻnak puli toʻlanadi. Telefon aloqasi orqali buyurtma qabul etishda buyurtmachi oʻz telefon raqamini maʼlum qilishi lozim. Buyurtma qabul etuvchi dispetcher buyurtmaning toʻgʻriligini aytilgan telefon raqami orqali tekshirishi zarur.

16.6 Korxonalar, tashkilot va idoralarga engil avtomobil bilan xizmat etishni tashkil etish.

Yengil avtosaroyda idora va tashkilotlarga yengil avtomobillar bilan xizmat koʻrsatishni tartibga solish boʻyicha Vazirlar Mahkamasining 1999yil 2 apreldagi 154-son qarori bilan bitta transport bilan yoʻl bosish yillik limiti va byudjet tashkilotlarining navbatchi engil avtotransportdan foydalanish normativlari toʻgʻrisida nizomda quydagilar belgilangan.[11]

1.Mazkur nizom Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Neft” mahsulotlari, suyuq va siqilgan gaz sotish tizimini tartibga solish, ulardan foydalanish va avtotransport vositalarining ishlatilishi ustidan nazoratni kuchaytirish toʻgʻrisida” 1998 yil 31 dekabrda 542-son qarorining 2-bandiga muvofiq ishlab chiqilgan va quydagi yoʻl bosish yillik limitini belgilaydi:

1-Jadval

Xizmat koʻrsatish turi	Ishning smenaliligi (soatlarda)	Yillik yoʻl, km	Oylik yoʻl, km

Shaxsan biriktirilgan avtotransportda 2 smenada	14	36500	3320
Shaxsan biriktirilgan avtotransportda 1,5 smenada	10	27720	2520
Shaxsan biriktirilgan avtotransportda 1 smenada	7	24640	2240
Navbatchi avtotransportda 2 smenada	14	27720	2520
Navbatchi avtotransportda 1,5 smenada	10	24640	2240

1. Vazirliklar, davlat komitalari, idoralar, muassasalar, tashkilotlar va xokimliklarga xodimlar sonidan kelib chiqqan holda navbatchi mashinalar uchun quydagi normativlar belgilanadi:

2-Jadval

Navbatchi maxsus avtomobillarning normativ me'yorlari

Xodimlar soni	Avtomobillar soni
100 kishigacha	1
100 dan 200 gacha	2
200 dan 300 gacha	3
300 va undan ortiq.	4

3.Vazirliklar, davlat komitalari, idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent hahar hokimliklari xizmat avtotransportining selgilangan oylik yol bosish limitlariga qat'iy amal qilishlari kerak.

4. «O'zneftmahsulot» aktsiyadorlik kompaniyasi budjet tashkilotlarining avtotransportlari uchun neftmahsulotlari, suyultirilgan va siqilgan gazga limitlar ajratishda Yoqilg'i-energetika resurslarini iqtisod qilish Hukumat komissiyasining 1994 yil 28 oktyabirdagi qarori bilan tasdiqlangan 100 km yol bosishga yoqilg' sarfining bazis mazkur liniya normalariga va avtotransport vositalarining maskur Nizomda ko'rsatilgan yo'l bosish yillik limiti normalariga amal qilish shart.

5. O'z avtotransport vositalarini suyultirilgan va siqilgan gazga o'tkazayotgan vazirliklar, davlat komitalari va idoralarni rag'batlantirish maqsadida ularga belgilangan yo'l bosish limitini 10 foizdan ortiq bo'lmagan miqdorga oshishga ruhsat etiladi.

6. Budjet tashkilotlariga xizmat ko'rsatuvchi avtokorxonalar rahbarlariga avtotransportning yo'l bosishi belgilangan limitdan oshib ketganda ko'rsatib o'tilgan muassasalar va tashkilotlarga xizmat ko'rsatish uchun avtotransport vositalarini chiqarish taqiqlanadi.

7. Avtokorxonalar rahbarlari mazkur Nizomning 6-bandini buzganligi uchun, chorakka belgilangan yo'l bosish limiti ishlatib bo'linganda xizmat ko'rsatish uchun avtomobil berishni davom ettirish qonunchilikda belgilangan tartibda shahsan javob beradilar.

8. Vazirliklarga, davlat komitalari, idoralarga, muassasalar, tashkilotlarga har qaysi xizmat avtotransport vositasi bo'yicha chorak uchun belgilangan limitni muddatdan oldin foydalanilganda, kelguvsi chorakning boshlanishiga qadar undan foydalanish qat'iy taqiqlanadi.

9. Avtokorxonalar rahbarlari choraklik yo'l bosish limiti ishlatib bo'lingan avtomobillarni aholiga xizmat ko'rsatish uchun taksi sifatida foydalanishga haqli.

Yoqilg'i sarfi. DAEWOO Nexia Sohs – 8,5 litr

Nazorat uchun savollar.

1. Passajirlar qanday uslublarda tashiladi?
2. Avtobus yo`nalishi qanday turlarga bo`linadi?
3. Shaxarlararo avtobus yunalishi qanday turlarga bo`linadi?
4. Qatnov doimiyligi nima, qanday aniqlanadi?
5. Passajir toshish turlarini tushuntiring?.
6. Yo`nalishlarda tendr tanlovi qanday bo`ladi?
7. Passajir oqimi qanday o`rganiladi?